

HADISDA ZIKR ETILGAN TURKLAR YOXUD CHINGIZXON TURK QAVMI VAKILI

Nasrullayeva Sabrina Lutfullayevna

Renessans ta'lif universiteti, 3-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17252912>

Bugungi kunimizga kelib rus va sovet tarixchilari qayta ishlab yozgan turklar to‘g‘risidagi, jumladan, Chingizzon va uning mo‘g‘ul-tatar qavmi haqidagi qalbaki tarixiy ma‘lumotlardan voz kechishga hamda ularning haqiqatga mos keladiganlarini ham asl manbalarga taqqoslab keyin dalil sifatida qabul qilishga bo‘lgan intilish nafaqat mutaxasis tarixchilar orasida, balki o‘zini turk deb hisoblaydigan oddiy xalq orasida ham jiddiy tus oldi.

Ma‘lumki, zamonaviy dunyomizda qadimdan turli qavm-elatlardan tarkib topib shakllanib ulgurgan turkiy millat-xalqlar talaygina. Lekin Imom Buxoriyning “Sahih” atalmish hadislar to‘plamida zikri keltirilgan Allohning alohida e’tiborida bo‘lgan turk atalmish ikki elat vakillari kim bo‘lganlaru hozirda o‘sha turklar dunyodagi qaysi turk millatining asosini tashkil etishi har qanday odamni xoh u tarixchi bo‘lsin va xoh u oddiy xalq vakili bo‘lsada, qiziqtirmasdan qo‘ymaydi. Men sharqshunos-tarixchi hamda islomshunos mutaxasis sifatida yuqoridagi tarixiy-ilmiy masalaga ishonchli manbalarga tayangan holda oydinlik kiritishga harakat qilaman.

Zora, mening bu sa'y-harakatim mazkur masala atrofida paydo bo‘lgan turli-tuman shubhalarga sal bo‘lsada barham bersa:

- Abu Hurayra raziyallohu anhu rivoyat qiladilar:
- Darhaqiqat, Rasululloh sallollohu alayhi va sallam bunday dedilar:

-Sizlar (ya’ni, musulmonlar) Xuz va Kirmon (ya’ni, Arabistonga Eron) tomondan kirib keladigan qizg‘ish yuzli, pachoq burunli, kichik (qisiq) ko‘zli ajamiy (ya’ni, arab bo‘lmagan) ikki (turk) elatga qarshi urushmaguningizga qadar Qiyomat bo‘lmas. Ularning yuzlari g‘adir-budir qalqon singari (sergo‘sht va yalpoq) bo‘lib, poshnalari (yoki poyabzallari) jundan (qilingandur). (Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Hadis. 2-jild. Qomuslar Bosh tahriri. Toshkent-1996. 484-bet).

Hatto, al-Buxoriyning “Hadis” deb atalgan asarining 2-jildi 268-beti 80-bobi “Turklarga (qarshi qilinadigan) jang xususida” deb nomlanadi.

Xo‘sh, Payg‘ambarimiz sallollohu alayhi vasallam “turklar” deganda dunyodagi qay bir turk qavmini nazarda tutgan edi? Chunki Muhammad alayhis salom bu hadisni o‘z qavmiga aytganda hali musulmon arablar turklar tugul hatto forsiylar bilan ham to‘qnashib ulgurmagan edilar. Aksincha, musulmon arablar uchinchi bo‘lib to‘qnashgan ajam(iy, ya’ni arab bo‘lmagan) deb ataluvchi qavm bu Eron hududidagi forsiylar bo‘lgandi. Birinchi ajamiy millat esa bu naroniylar hisoblansa, ikkinchi ajamiy qavm yahudiylardir.

Demak, Islom lashkari 708 yilga kelgandagina birinchi bo‘lib Amudaryoning orti bo‘lmish, arablar tilida aytganda Movarounnahrga, ya’ni Turonzaminga bostirib ririb rostmana turk qavmiga mansub qo‘shin bilan jangga kirishdilar. Biroq hali bu hadisda eslab o‘tilgan “ikki turk elati” emas edi. Chunki o‘sha paytdagi Movarounnahr turklarining yuz tuzilishi hadisda zikri keltirilgan mongoloid ko‘rinishda emasdi:

Yig‘ib Chin lashkari salsa mo‘g‘ulona ko‘zung yuzga,
Chig‘atoy birla o‘zbekni olur toroju yag‘mosi. (Atoiy she’ri).

Chunonchi, «Temur tuzuklari» nomli ilmiy-tarixiy asarda mo‘g‘ullarga xos bo‘lgan va yuqoridagi hadisi sharifda tasvirlab berilgan yuz tuzilishiga Amir Temur ham urg‘u berib o‘tadi:

-Tilga olingan mo‘g‘ul amirlarini ko‘rganimda ularni haybatim bosdi shekilli, ko‘p hurmat ko‘rsatib, meni ortiqcha siyladilar. Ularning ko‘zlariga o‘xshash ko‘ngillari ham tor bo‘lganligidan, sovg‘a-sovrin yo‘sindida ularga berilgan har turlik tansiq mollar ko‘zlariga ko‘p ko‘rindi va Movarounnahrni bosib olish va talon-toroj qilish niyatidan qaytdilar. (Amir Temur. Temur tuzuklari.

G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi. Toshkent. 1991 yil, 18-bet).

Endi bizning oldimizda yana bir muammo bor, ya’ni hadisda tilga olinib Payg‘ambarimiz (SAV)ning takror va takror zikriga hamda Allohnning nazari tushib Uning g‘azabidan yaralgan «ikki elat» deb ta’riflanganlik mavzusiga aniqlik kiritib olish fursati yetdi desak bo‘laveradi:

-Millatni uyg‘otish uyg‘onganlarning vazifasidir.

(Cho‘lpon). Demak, Rasululloh (SAV) taxminan milodiy 630 yillarda taxminan o‘zidan keyin 650 yilcha o‘tib (1219y) kelajakda musulmonlarni g‘ayriddin bo‘lgan ikki turk qavmi bilan yuz beradigan qonli to‘qnashuvi haqidagi ilohiy bashoratni bayon qilyaptilar. Hadisi sharifdagi odamni o‘ylantiradigan muhim bir joyi shuki, yuqorida ta’kidlaganimizdek aslida dunyoda turk qavmiga mansub elat va qabilalar juda ko‘p. Rasululloh (SAV) ikki turkiy elat deganlarida ularning qay birini nazarda tutgan edilar? Ushbu hadisni bundan to‘liqroq matn bilan Tabaroniy, Abu Dovud, Nasaiy va Bayhaqiylar ham rivoyat qilishgan:

-Abu Hurayra roziyallohu anhu aytadi: -Rasululloh sallollohu alayhi vasallam:

-Ko‘zları kichik, yuzları qızıl, puchuq burun, yuzları teri qoplangan qalqonga o‘xshaydigan turklarga qarshi jang qilmaguningizcha, soat (qiyomat) qoim bo‘lmaydi, dedilar. (“Oltin sisila” kitobidan Sahihul Buxoriy).

Shorihlar (ya’ni mazkur hadisni sharh etuvchi olimlar) bu borada turli fikrlarni aytishgan.

Jumladan, “bu hadisda zikr etilgan turk qavmi mo‘g‘ullar” deyishgan. Vallohu a’lam! (“Zikr ahlidan so‘rang” hay’ati).

Xullas, Alloh taolo Rasululloh sallollohu alayhi vasallam orqali Saodat Asridan keyin olti asr o‘tib 1219 yildan boshlanib to 1227 yilgacha davom etadigan ikki turkiy qavm sanalmish mo‘g‘ul-tatarlarning musulmonlarga hujum qilishlari to‘g‘risidagi ilohiy bashoratini taqdim etib, bu bilan musulmonlarni uzoq kelajakda yuz beradigan ana shunday muqarrar xavf-xatardan ogohlantirgan ekan:

-O‘zidan quyidagilarga zulm qilib, ulardan o‘zini baland tutgan kishi borki, Alloh uni o‘zidan yuqoridagilarning qo‘li bilan xorlash orqali balolab qo‘yanini doim ko‘rdim. (Hofiz ibn Hibbon rahmatullohi alayhi).

Vaholanki, Qutayba ibn Muslim 708 yili o‘zining arab-fors millatiga mansub askarlaridan iborat musulmon qo‘sinni Movarounnahr sarhadlariga olib kirib o‘zining keng qamrovli bosqinchilik urushlarini boshlab yuboradi.

O‘shanda Movarounnahrda ham turkiy elatlar Buxoro va Xorazmda hukmron qavm sanalganlar:

-Dinda majburlash yo‘q. (2-Baqara surasi 255-oyat).

Holbuki, Qutayba boshchiligidagi Islom lashkariga o'shanda na eroni va na turkiy qavm vakillari jiddiy qarshilik ko'rsata olmadni hamda oxir oqibat ular arablar istilosida mag'lub bo'ldilar. Demak, yuqorida zikr etilgan Buxoro va Xorazmdagi turklar quyidagi Payg'ambarimiz sallollohu alayhi vasallam bezovta qilinishi mumkin bo'lmagan turklar deb ta'rif bergan toifaga mansub qavm emas ekan.

Zero, yuqoridagi ikki sahil hadisda ham o'sha "oromi buzilishi" mumkin bo'lmagan turk elati ikkita ekanligiga urg'u berilayotganligiga e'tiborimizni qaratsak, masalaning yechimi aynan mo'g'ul-tatar nomli ikki turk qavmi ekanligi orqali oydinlasha boshlaydi. Chunonchi, Allohnning alohida diqqat-e'tiborida turadigan turk elati to'g'risida mashhur «Devoni lug'otit turk» asarining muallifi Mahmud Qashg'oriy ham mazkur kitobining muqaddimasida bir hadis bilan eslab o'tadi:

- Shayxul imom az-Zohid al-Husayn bin Xalaf al-Kashg'oriyga Ibn al-G'arqiy degan odam Shayx Abu Bakr al-Mufid al-Jarjaroniyning oxir zamon haqidagi kitobida Payg'ambar (SAV)dan shu hadisni rivoyat qiladi:

- Ulug' Tangri aytadi:
- Mening bir toifa askarim bor, ularni turk deb atadim. Ularni kunchiqarga o'rinalashtirdim. Biror xalqdan g'azablansam, turklarni unga qarshi yo'llayman.

Bu narsa ular (ya'ni, turklar) boshqalarga nisbatan fazilatli ekanini ko'rsatadi. Hatto Tangri ularga o'zi ot qo'ygan, ism bergan, ularni eng baland yerlarga, xush havo joylarga o'rnatgan va o'zining botirlaridan sanagan. (Mahmud Koshg'ariy.

Turkiy so'zlar devoni (Devoni lug'otit turk). Mo'g'ul-tatar deb nomlanuvchi ikki turk qavmi haqidagi ma'lumot Amir Temurning ikki qabrtoshi (pastki va tepadagi)da ham qayd etilgani taxsinga loyiq voqeа hisoblanadi. Chunki Barlos qabilasining yetakchi tarixiy vakili hisoblan mish Amor Temur o'zining kelib chiqishini xuddi mana shu mo'g'ul-tatar qavmining Mo'g'ul atalmish bobokoloniga ham tegishli ekanligini o'zining mashhur "Temur tuzuklari" asarida ochiq-oshkor tan olgan: Ular (ya'ni, Qobulxon va Qochuvli-bahodirlar Tumanaxon) ota oldida: -Xonlik taxti Qobulxonga bo'lsin, shamshir va hukm yuritish esa Qochuvliga berilsin, deb bir-birlariga so'z berdilar. Biz farzandlarimizga ham ham vasiyat qilamiz, (ular) ham avloddan-avlodga ushbu qoidaga amal qilsinlar, dedilar.

Shu haqdagi qarorni uyg'ur yozuvida bitib qo'ydilar, har ikkovlari unga imzo chekdilar, ota ham unga o'zining ol (oilaviy) tamg'asini bosdi va uni xon xazinachisiga topshirdilar.

Tumanaxonning umri tugagach, Qobulxon xonlik taxtiga o'tirdi. Qochuvli esa u bilan yakdillik va muvofiqat maqomini tutdi. Amir Temurning qabrtoshida zikr etilgan Mo'g'ul va Tatar (Totor) nomlari sohibqironidan oldin o'tgan u kishining nasl-nasabidagi 24-bobokolonining ismi bo'lib chiqmoqda.

Mo'g'ulxonidan keyin 7 (yettinchi) ajdodda No'h alayhis salomning muborak nomi ham mazkur qabrtoshdan o'rinni olgandir. Xuddi shu shajara asnosida Shohruhmirzo hamda Mirzo Ulug'bek Chingizzon mansub bo'lgan ajdodlar xronologiyasini ham mazkur qabrtoshda ifoda etganlar. Ana shu shajaran dan kelib chiqib biz bu ikki sohibqironlar, ya'ni Chingizzon va Amir Temur Tumanaxon degan bobokolonlariga yetib borganlarida ularning nasl-nasabi bitta bo'lib qolganligiga ham guvoh bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абулгозийхон Баходирхон. Шажараи турк. – Т.: Чулпон, 1992. – Б.
2. Akbar Zamonov. O`rta asr tarixiy shaxslarining ayrim noma'lum sahifalari. – Т : Bayoz, 2019. – В.20.
3. Жабборов И. Буюк Хоразмшохлар давлати. 124-б.
4. Михаил Иванин. Икки Буюк саркарда. Чингизхон ва Амир Темур – Т.: , 2019. – Б.67.
5. Mo'g'ul imperiyasi: kelib chiqishi, joylashishi, xususiyatlari, madaniyati, iqtisodiyoti - Fan - 2023 (warbletoncouncil.org)
6. Mo'g'ullar istilosи va zulmiga qarshi kurash (xorazmiy.uz)